




NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI



**2024- YIL YANVAR-DEKABR
DASTLABKI MA'LUMOT**

Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari

Qurilish korxonalari soni

2025-yil 1-yanvar holatiga, birlikda

2025-yil 1-yanvar holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 106 tani tashkil etdi. Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 362 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 32,7 % i Navoiy shahrida joylashgan.

Navoiy sh	362
Karmana t	202
Qiziltepa t	175
Navbahor t	89
Zarafshon sh	78
Nurota t	68
Xatirchi t	53

Konimex t	27
Uchquduq t	20
Tomdi t	19
G'ozg'on sh	13

Qurilish korxonalari soni, birlikda



Qurilish sohasida faoliyat krsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2025-yil 1-yanvar holatiga, birlikda



Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida, Navoiy viloyatida jami 11 944,0 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 113,9 % ni tashkil etdi.


Bajarilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar-dekabr oylarida hajmi, mlrd soʻmda



Bajarilgan qurilish ishlari hajmining oʻsish surʼati

yanvar-dekabr oylarida, % da



* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik maʼlumotlar asosida qayta hisoblangan.

Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

Navoiy viloyatida qurilish ishlari


2024-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida, xususan, Navoiy shahri (1 510,0 mlrd so'm), Tomdi tumani (1 403,9 mlrd so'm) va Qiziltepa tumani (1 354,3 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

yanvar-dekabr oylarida

O'sish sur'ati % da

Hajmi mlrd so'mda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 77,2% ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,0% ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,5% ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 171,8% ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,3% ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 97,7% ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati

yanvar-dekabr oylarida, % da



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi

yanvar-dekabr oylarida



9 223,0
mlrd so'm

Bino va inshootlar
qurish



2 083,4
mlrd so'm

Fuqarolik
obyektlarini qurish



637,6
mlrd so'm

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 81,8% i yoki 9 770,0 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2 344,6 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 24,0 % ni tashkil etdi.

24,0 %

2 344,6
mlrd so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 3 149,8 mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 32,2 % ni tashkil etdi

32,2 %

3 149,8
mlrd so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 4 275,6 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 43,8 % ni tashkil etdi.

43,8 %

4 275,6
mlrd so‘m




Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Tomdi tumani (1 357,5 mlrd so'm), Navoiy shahri (1 036,2 mlrd so'm) va Qiziltepa tumani (1 015,1 mlrd so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

yanvar-dekabr oylarida, mlrd so'mda




Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 20,9 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 5,1 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga kamayib 27,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga kamayib, 51,7 % ni tashkil etdi.

Bino va inshootlar qurilishining jami hajmi – 9 223,0 mlrd so'm




Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Tomdi tumani (96,0%), Uchquduq tumani (88,6%) va Navbahor tumani (80,8%) kuzatildi.

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi

yanvar-dekabr oylarida, mlrd so'mda



Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi

yanvar-dekabr oylarida, % da



Tomdi tumani
96,0



Uchquduq tumani
88,6




Navbahor tumani
80,8

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 51,3 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 35,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 35,2 % punktga kamayib 48,7 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari va ulushi *yanvar-dekabr oylarida*




Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Navoiy shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 33,9 % i), Qiziltepa tumani (31,9 %) va Karmana tumani (28,2 %)da kuzatildi.

Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi

yanvar-dekabr oylarida, mlrd so'mda



Fuqarolik obyektlari qurish faoliyat turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi

yanvar-dekabr oylarida, % da



33,9

Navoiy shahar



31,9

Qiziltepa tumani



28,2

Karmana tumani


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi va 3,2 % ni tashkil etdi.

Qolgan 96,8 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga ko'paydi.

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati


yanvar-dekabr oylarida



Jamiga nisbatan ulushi (% da)

Yirik qurilish tashkilotlari

3,2




96,8

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida (60,8%), Konimex tumanida (32,0%) va Navoiy shaharida (11,1%) kuzatildi.

Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi *yanvar-dekabr oylarida, mlrd so'mda*



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi *yanvar-dekabr oylarida, % da*



60,8

G'ozg'on shahri



32,0

Konimex tumani



11,1

Navoiy shahari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi


yanvar-dekabr oylarida, mlrd so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati

yanvar-dekabr oylarida, % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2023-yil mos davriga nisbatan **189,8**

2023-yil mos davriga nisbatan **99,9**

2023-yil mos davriga nisbatan **100,6**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 019,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 189,8 % ni va ularning ulushi 25,3 ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi

yanvar-dekabr oylarida, % da



Hududlar kesimida mlrd. so'mda


yanvar-dekabr oylarida



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Tomdi tumani (96,3 %), Uchquduq tumani (38,8 %), Qiziltepa tumani (24,1 %) va qayd etildi.

Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi *yanvar-dekabr oylarida, mlrd so'mda*




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori ulushga ega hududlar, jamiga nisbatan *yanvar-dekabr oylarida, % da*



Tomdi tumani



Uchquduq tumani




Qiziltepa tumani


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 34,8% i to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,0% punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 99,9% ni tashkil etgan holda 4 154,1 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi yanvar-dekabr oylarida, % da



Hududlar kesimida jamida ulishi % da yanvar-dekabr oylarida




* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (77,0%), G'ozg'on shahri (61,7%) va Navoiy shahri (60,3%) to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi

yanvar-dekabr oylarida, mlrd so'm



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori ulushga ega hududlar, jamiga nisbatan

yanvar-dekabr oylarida, % da



Zarafshon shahri




G'ozg'on shahri



Navoiy shahri


Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 39,9 % ni yoki 4 770,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 100,6 % ni tashkil etdi. Shundan 2 639,4 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 96,4 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 1 636,3 mlrd so'mni va 106,5 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 495,2 mlrd so'mni va 105,9 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida jamida ulishi % da

yanvar-dekabr oylarida




* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Xatirchi tumanida (440,9 mlrd so'm), Karmana tumanida (371,1 mlrd so'm) va Qiziltepa tumanida (302,5 mlrd so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-dekabr oylarida, mlrd so'mda



Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori hajmga ega bo'lgan hududlar yanvar-dekabr oylarida, mlrd so'mda



440,9
Xatirchi tumani



371,1
Karmana tumani



302,5
Qiziltepa tumani

Yanvar-dekabr oyidagi hajm, (mlrd. so'mda)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 563,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 11 380,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,7 % va 95,3 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun:

Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichlari Navoiy shahrida (1 403,9 mlrd.so'm), Tomdi tumanida (1 510,0 mlrd.so'm) Qiziltepa tumanida (1 354,3 mlrd.so'm), va Zarafshon shaharda (995,6 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.